

**BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASI VA XALQARO TOVAR
BELGILARINI HIMOYA QILISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI**

Sharapova Rayhon Bekbergen qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Elektron pochta manzili: raykhonsharapova@gmail.com

***Annotatsiya:** maqolada blokcheyn texnologiyasining xalqaro tovar belgilarini aniqlash, ro'yxatga olish va huquqiy himoya qilishdagi ahamiyati hamda O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalar keltiriladi.*

***Kalit so'zlar:** blokcheyn texnologiyasi, xalqaro tovar belgisi, autentifikatsiya, smart-kontrakt, anti-kontrafakt, huquqiy himoya, raqamli reyestr.*

**ТЕХНОЛОГИЯ БЛОКЧЕЙН И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ
МЕЖДУНАРОДНОЙ ЗАЩИТЫ ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ**

Шарапова Райхон Бекберген кизи

Магистратура Ташкентского государственного юридического университета

Адрес электронной почты: raykhonsharapova@gmail.com

***Аннотация:** в статье рассматривается значение технологии блокчейн в идентификации, регистрации и правовой защите международных товарных знаков, а также даются практические рекомендации для Узбекистана.*

***Ключевые слова:** технология блокчейн, международный товарный знак, аутентификация, смарт-контракт, борьба с контрафактом, правовая защита, цифровой реестр.*

**BLOCKCHAIN TECHNOLOGY AND PROSPECTS FOR
DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL TRADEMARK PROTECTION**

Sharapova Rayhon Bekbergen qizi

Master's student of Tashkent State University of Law

E-mail address: raykhonsharapova@gmail.com

Abstract: *the article presents the importance of blockchain technology in the identification, registration and legal protection of international trademarks and practical recommendations for Uzbekistan.*

Keywords: *blockchain technology, international trademark, authentication, smart contract, anti-counterfeiting, legal protection, digital registry.*

Zamonaviy raqamli transformatsiya davrida intellektual mulk obyektlarini, ayniqsa tovar belgilarini himoya qilish masalasi nafaqat milliy darajada, balki global kontekstda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Tovlar belgisi brendning yuridik identifikatori sifatida nafaqat mahsulot sifatini belgilaydi, balki uni bozordagi raqobatchilardan ajratib turuvchi vositadir. Xalqaro savdo jarayonlarining tezlashuvi, tovar va xizmatlar oqimining transchegaraviy xarakter kasb etishi, raqamli muhitda kontrafakt mahsulotlarning keng tarqalishi sababli, ushbu belgilarni ishonchli, samarali va shaffof himoya qilish tizimiga ehtiyoj ortmoqda.

Bu holatda innovatsion texnologiyalar, xususan, blokcheyn texnologiyasi muhim o'rin tutadi. Blokcheyn tizimi orqali tovar belgilarini raqamli shaklda identifikatsiyalash, ularning foydalanish tarixini aniqlash va huquqiy da'volarda qat'iy isbot bazasi sifatida foydalanish imkoniyati yuzaga kelmoqda (Kshetri, 2017). Raqamli yozuvlarning o'zgarmasligi, markazsiz xarakteri va vaqt tamg'alari blokcheynni intellektual mulk huquqi uchun jahon miqyosida yirik yutuqqa aylantirmoqda.

Shunday ekan, ushbu maqola blokcheyn texnologiyasining xalqaro tovar belgilarini huquqiy himoya qilishdagi o'rni, mavjud xalqaro institutlarning amaliyoti, normativ asoslar va O'zbekiston uchun istiqbolli yo'nalishlarni atroflicha tahlil qilishga qaratiladi.

Blokcheynning mohiyati va texnik asoslari. Blokcheyn – bu taqsimlangan (distributed) ma'lumotlar bazasini ifodalovchi texnologiya bo'lib, unda ma'lumotlar bloklar ko'rinishida saqlanadi va har bir yangi blok avvalgisiga kriptografik jihatdan bog'langan bo'ladi. Bu jarayon har bir yozuvning o'zgartirilmasligini va tizimga har qanday aralashuv tarixining qayd etilishini ta'minlaydi¹. Ushbu xususiyatlar blokcheynni ishonchli ma'lumotlar manbai sifatida tan olish imkonini beradi.

Bunday tizim markazlashmagan xarakterga ega bo'lib, ma'lumotlarni bir nechta tugunlar (node) orqali qayta ishlaydi. Bu esa tizimda korruptsiyaga, manipulyatsiyalarga va soxtalashtirishga qarshi kuchli himoya yaratadi.

Blokcheyn va huquqiy axborot muhofazasi. Blokcheyn texnologiyasi huquqiy hujjatlar va intellektual mulk obyektlari haqidagi ma'lumotlarni himoya qilish uchun noyob imkoniyatlar yaratadi. Misol uchun, blokcheynga yuklangan faylning hash-kodi, vaqt tamg'asi, uning egasining raqamli imzosi va qo'llanilish tarixi doimiy nazorat ostida bo'ladi. Bu ma'lumotlar huquqiy da'volar davomida hujjatning muallifligini, yaratilgan vaqtini va foydalanuvchilar doirasini aniqlashda isbot sifatida xizmat qiladi².

Shuningdek, ushbu texnologiya tovar belgilarining noqonuniy nusxalanishiga qarshi turishda, ayniqsa kontrafakt mahsulotlarni aniqlash va iste'molchilarga haqiqiylikni tasdiqlovchi raqamli platformalarni yaratishda muhim rol o'ynaydi. Tovlar belgilariga oid har bir harakat – ro'yxatdan o'tkazish, foydalanish, litsenziyalash, da'volar – blokcheynga yozilgan taqdirda, bu tizim ishonchli elektron huquqiy “qayd daftari”ga aylanadi.

¹ Nakamoto, S. (2008). *Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System*. Retrieved from <https://bitcoin.org>

² Gupta, M., & Bose, I. (2019). *Blockchain Technology for Corporate Governance and Financial Management*. Springer.

Amaldagi O‘zbekiston qonunchiligi smart-kontraktlarning o‘zgarmasligi, avtonomligi va tarmoqdan markazlashtirilmagan xususiyatlarini hisobga olmaydi, chunki bu soha yangi va hali rivojlanish bosqichida (nafaqat texnik, balki huquqiy jihatdan ham). Hozirgi paytda smart-kontraktlar O‘zbekiston Respublikasining huquqiy maydonida elektron bitimlar yoki axborot tizimlari orqali tuziladigan oddiy shartnomalar qatorida ko‘riladi, alohida huquqiy tartibga ega emas. Aslida esa smart-kontraktlar o‘z mohiyatiga ko‘ra elektron shartnomalar emas, balki raqamlashtirilgan majburiyatlardir.

Garchi qonunchilikda smart-kontraktlar elektron shakldagi shartnoma sifatida tan olingan bo‘lsa-da, ularning amaliy qo‘llanilishi (xorijiy tajribada bo‘lgani kabi) raqamli tranzaksiyalar asosida amalga oshirilmoqda.

Misol uchun, 2022-yilda O‘zbekiston bozoriga kirgan moliyatexnologik kompaniya “Uzum”ni ko‘rsatish mumkin. Ushbu fintech loyihasi Jasur Jumaev tomonidan tashkil etilgan va hozirda O‘zbekistondagi eng yirik raqamli ekotizim hisoblanadi. Uning tarkibiga quyidagi loyihalar kiradi:

- “Uzum Nasiya”
- “Uzum Tezkor”
- “Uzum Market”
- “Uzum Bank”
- “Uzum Avto”

Shulardan ayniqsa, “Uzum Market”ga e‘tibor qaratish lozim. Bu onlayn marketpleys O‘zbekiston bo‘ylab tovar buyurtma qilish imkonini beradi. Xizmat hozirgi kunda mamlakat bo‘ylab 300 dan ortiq yetkazib berish punktini o‘z ichiga oladi va amaliyoti smart-kontraktlarga asoslanadi. Buyurtma berilganda foydalanuvchi hisobidan ma‘lum miqdor pul yechib olinadi va serverda ushlab

turiladi. Mahsulot yetkazib berish punktiga yetib borgach, xaridor buyurtmani qabul qiladi va saqlangan mablag‘ sotuvchi hisobiga o‘tkaziladi.

Bundan tashqari, agar xaridor mahsulotni belgilangan muddatda olmasa, buyurtma omborga qaytariladi va unga “olish paytida to‘lov” xizmatidan foydalanish taqiq qilinadi, chunki shart buzilgan hisoblanadi. Mazkur tizim smart-kontraktarning uchta asosiy afzalligini namoyon etadi: *operatsion samaradorlikni oshirish* (an’anaviy usullarga nisbatan xarajatlarni 34% ga kamaytirish), *tomonlarning manfaatlarini avtomatik himoya qilish* va *bajarilishni tekshiruvchi vositachilarga ehtiyojni yo‘qotish*. Ushbu misol O‘zbekistonda smart-kontraktarning tijoriy joriy etilishi bo‘yicha ilk hujjatlashtirilgan va muvaffaqiyatli loyihadir, uning amaliy qiymatini va huquqiy tartibga solish zaruratini yaqqol ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, mazkur muammoni hal etishning eng yaxshi yo‘li — progressiv-maxsus usulga murojaat qilish, ya’ni smart-kontraktarni tartibga soluvchi yangi normalarni joriy etish hamda fuqaro huquqi sohasida adaptiv metodni qo‘llashdir. Xususan, amaldagi qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritilib, smart-kontraktlar bilan ishlash va ularning o‘zaro aloqasini ta’minlovchi huquqiy mexanizmni o‘rnatish zarur.

Shuning uchun smart-kontraktarning mohiyatini to‘g‘ri tushunish va ularning “boshlanish va tugash” nuqtalarini aniq belgilash maqsadga muvofiq. Smart-kontraktning shartnoma sifatida to‘laqonli tan olish uchun O‘zbekiston qonunchiligining o‘zgarishi, evolyutsiyasi talab etiladi. Smart-kontrakt atamasini aniq belgilovchi va uning asosiy xususiyatlari hamda yuridik xarakteristikalarini mustahkamlaydigan maxsus normativ-huquqiy baza joriy etilishi lozim.

Qonun ijodkorlari smart-kontraktning shartnoma tuzishning ruxsat etilgan shakli deb aniq qayd etib, uning tarkibiy talablarini (muhim shartlar, ishtirokchilar, predmet, shartlarni kodda aks ettirish usuli va boshqalar) belgilashlari, shuningdek, uni “raqamli bitim” sifatida ko‘rishlari maqsadga muvofiq. Bunda AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi asosida, mavjud mustahkam huquqiy poydevorimizga xo‘sh keladigan yangicha yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish mumkin.

Tovar belgilarining huquqiy tabiatiga umumiy yondashuv. Tovar belgisi – bu grafik, tovush, rang kombinatsiyasi yoki boshqa ko‘rinishdagi belgilar bo‘lib, mahsulot yoki xizmatni boshqalardan ajratib turadi. U tijorat faoliyatida muhim rol o‘ynaydi, brend qiymatini ifodalaydi, iste’molchida ishonch uyg‘otadi va ishlab chiqaruvchining obro‘sin aks ettiradi.

Xalqaro miqyosda tovar belgilarining huquqiy himoyasi uchta asosiy hujjat bilan belgilanadi:

- **Parij konvensiyasi (1883):** bu intellektual mulkni himoya qilish bo‘yicha birinchi xalqaro konvensiya bo‘lib, bir xil asosiy prinsiplar va milliy muomala kafolatlarini belgilaydi.
- **TRIPS bitimi (1994):** Jahon savdo tashkiloti doirasida tuzilgan va tovar belgilarining himoyasi uchun minimal standartlarni belgilab beradi.
- **Madrid kelishuvi (1891) va Protokol (1989):** bu tizim tovar belgisini markazlashtirilgan tartibda bir nechta davlatda ro‘yxatdan o‘tkazishga imkon beradi³.

³ <https://www.wipo.int>

Biroq ushbu tizimlarning barchasi markazlashgan bo‘lib, ularning verifikatsiya va hujjat aylanishi tizimi murakkab, qog‘ozbozlikka moyil va texnologik jihatdan eskirgan deb baholanmoqda.

Madrid tizimi va raqamlashtirish zaruriyati. Madrid tizimi, nazariy jihatdan, tadbirkor va kompaniyalarga bir martalik murojaat orqali ko‘plab davlatlarda tovar belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish imkonini beradi. Ammo amaliyotda bu jarayon turli to‘siqlarga duch keladi:

- turli yurisdiksiyalar tomonidan qo‘yilgan turli texnik talablar;
- verifikatsiya va rasmiy yozishmalar uchun ketadigan vaqt va xarajatlar;
- noto‘g‘ri tarjimalar va hujjatlarni yo‘qotish xavfi.

Blokcheyn integratsiyasi bu muammolarni kamaytiradi. Masalan, blokcheyn yordamida bir martalik yozuvni barcha ishtirokchi yurisdiksiyalar ko‘ra oladi, har bir yurisdiksiyaning tasdiqlovchi tuguni bo‘lishi mumkin. Harakatlar real vaqtda qayd etiladi, bu esa hujjatlarni tezroq, xavfsizroq va shaffof tarzda muomala qilishga zamin yaratadi⁴.

WIPO tajribasi: WIPO Proof platformasi. Jahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO) 2020-yilda “WIPO Proof” nomli platformani ishga tushirdi. Bu platforma intellektual mulk obyektlariga raqamli vaqt tamg‘asi (timestamp) va hujjatning kriptografik hashi orqali himoya taqdim etadi. U foydalanuvchiga o‘z huquqlarini sud oldida tasdiqlashda ishonchli dalil sifatida xizmat qiladi⁵.

Ushbu tizim mualliflik huquqi, sanoat namunasi, biznes g‘oyalari, savdo sirlarini blokcheynga yozish orqali ularni o‘zgarmas shaklda saqlashga yordam

⁴ WIPO. (2020). *WIPO Blockchain White Paper*. Retrieved from <https://www.wipo.int>.

⁵ <https://www.uspto.gov>.

beradi. WIPO Proof davlatlararo tan olish asosida ishlaydi, ya'ni bir yurisdiksiyada yaratilgan raqamli tamg'a boshqa davlatda ham tan olinadi, bu esa xalqaro da'volarda katta ahamiyatga ega.

Yevropa Ittifoqi Intellektual Mulk Idorasi (EUIPO) 2022-yildan boshlab "Anti-Counterfeiting Blockathon Infrastructure" (ACBI) loyihasini boshlab berdi.

U quyidagi maqsadlarga yo'naltirilgan:

- kontrafakt mahsulotlarni aniqlash uchun raqamli vositalar yaratish;
- tovar belgilariga oid raqamli pasportlar ishlab chiqish;
- iste'molchilar, bojxona organlari va brend egalari o'rtasida raqamli ishonch tizimini yo'lga qo'yish.

Blokcheyn asosidagi ACBI platformasi orqali iste'molchi mahsulotdagi QR kodni skanerlab, u haqidagi to'liq tarixni, egasini va ro'yxatdan o'tgan yurisdiksiyalarni ko'rishi mumkin. Bu yondashuv, ayniqsa Yevropa ichki bozorida tovarlar harakati tezligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

AQSh Patent va Tovar Belgilari Idorasi (USPTO) 2021-yildan boshlab raqamli huquq isbotini ta'minlovchi blokcheyn asosidagi platformalarni sinovdan o'tkazmoqda. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- patent arizalarining vaqt tamg'asi va hujjat hashlarini saqlash;
- tovar belgilarining blokcheynga asoslangan reyestrini yaratish;
- mualliflar va kompaniyalar uchun avtomatik litsenziyalash jarayonlarini yo'lga qo'yish (USPTO, 2021).

Shuningdek, USPTO blokcheyn texnologiyasidan foydalangan holda egasi noma'lum bo'lgan, lekin foydalanish tarixi isbotlangan obyektlar bo'yicha huquqiy bahslarni tez va adolatli ko'rib chiqishni maqsad qilgan.

Blokcheyn asosidagi huquqiy hujjatlarni tan olish masalasi. Raqamli huquqiy isbot vositalarining yuridik kuchini tan olish masalasi zamonaviy huquq tizimlarida dolzarb bo‘lib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va Elektron hujjatlar aylanishi to‘g‘risidagi qonunida elektron shakldagi hujjatlar va raqamli imzolar qonuniy kuchga ega ekani ko‘zda tutilgan. Xususan, ***“Elektron hujjatlar aylanishi to‘g‘risidagi” qonunning 6-moddasida*** raqamli imzo bilan tasdiqlangan elektron hujjatlar qog‘ozdagi hujjat bilan tenglashtiriladi, deb belgilangan. Biroq, ayni paytda blokcheyn texnologiyasiga asoslangan yozuvlar yoki hashlar qonunchilik darajasida alohida huquqiy maqomga ega emas. Masalan, shaxs o‘zining mualliflik huquqi yoki tovar belgisi ustidan da’vo qilganida, uning huquqini isbotlovchi yagona vosita sifatida blokcheynga yozilgan vaqt tamg‘asining sud tomonidan tan olinishi kafolatlanmagan. ***Fuqarolik protsessual kodeksining***

65-moddasi bo‘yicha har qanday yozuv yoki dalil vositasi sud tomonidan dalillik xususiyatiga ko‘ra mustaqil baholanadi. Demak, blokcheynga asoslangan isbotlar hali normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlangan emas.

Shu bois, blokcheyn orqali yaratilgan huquqiy yozuvlarni yuridik jihatdan tan olishni aniq belgilab beruvchi qonunchilik mexanizmlari ishlab chiqilishi zarur. Bunda boshqa davlatlar tajribasiga murojaat etish mumkin. Masalan, Estoniya, Singapur va AQShda ayrim turdagi blokcheyn-verifikatsiyalar sud hujjati sifatida tan olinadi.

Blokcheynning xalqaro huquqiy munosabatlarga integratsiyasi ko‘plab kollizion savollarni yuzaga keltirmoqda. Eng muhim masala – blokcheynga asoslangan yozuvlar va shartnomalar ustidan yurisdiksiyani aniqlashdir. Masalan:

- Blokcheyn orqali yaratilgan yozuv qaysi yurisdiksiyada yaratilgan deb hisoblanadi?
- Uni isbot vositasi sifatida qabul qiluvchi davlat qonunchiligi qanday?
- Smart-kontraktlar bajarilmasa, da'vo qaysi davlat sudida ko'rib chiqiladi?

Rim II Reglamenti (864/2007/EU) va boshqa xalqaro hujjatlar bu kabi vaziyatlarda “zarar yetgan davlat” va “yaqin aloqa” mezonlarini asos qilib oladi. Shu sabab, xalqaro savdo va tovar belgilarini muhofaza qilish bo'yicha shartnomalarda blokcheynga asoslangan yozuvlarni o'zaro tan olish va ularning yurisdiksiyalararo kuchini belgilovchi qo'shimcha protokollar ishlab chiqilishi talab etiladi⁶.

Blokcheyn texnologiyasining afzalliklari va cheklovlari.

Afzalliklari:

1. **Shaffoflik va o'zgarmaslik:** Blokcheyn tizimidagi har bir yozuv o'zgartirib bo'lmaydigan tarzda bloklarga kiritiladi. Tovar belgilarining ro'yxatdan o'tgan vaqti, egasi, litsenziya bitimlari va ularga oid da'volar tarixini ishonchli tarzda saqlash va o'z vaqtida tekshirish imkonini beradi.

2. **Markazlashmaganlik:** Blokcheyn tizimi an'anaviy ro'yxatga olish idoralaridan farqli o'laroq, markazlashmagan tarmoqda faoliyat yuritadi. Bu esa yagona vakolatli organ bo'lmagani sababli korrupsiyaga, manipulyatsiyaga va siyosiy ta'sirlarga barham beradi.

3. **Soxtalashtirishga qarshi mexanizm:** Blokcheyn texnologiyasi mahsulotlarning haqiqiylikini tekshirish imkonini beradi. Masalan, tovar belgisiga

⁶ Cremers, K., Graham, S. J., & Moshirian, F. (2022). *Blockchain and Intellectual Property Law*. Journal of Law and Innovation, 4(2), 45–67.

oid QR-kod skanerlanganida mahsulotning original yoki kontrafakt ekanligini aniqlash mumkin bo'ladi⁷.

4. **Xalqaro huquqiy ishonch:** WIPO, EUIPO, USPTO tomonidan yo'lga qo'yilgan blokcheyn asosidagi platformalar natijasida bir necha davlatlarda bir xil yozuvga asoslangan isbotlar ishlatilmoqda, bu esa xalqaro tan olish jarayonlarini soddalashtirmoqda.

Cheklovlar:

1. **Huquqiy tartibga solinmaganlik:** Ko'plab davlatlarda blokcheynga asoslangan yozuvlar qonunchilikda alohida belgilanmagan. Bu esa sud yoki boshqa davlat organlari tomonidan ularni rasmiy hujjat sifatida tan olmaslikka olib keladi.

2. **Texnik va moliyaviy xarajatlar:** Yangi texnologiyalarni joriy etish katta moliyaviy va inson resurslarini talab qiladi. Davlat idoralari va xususiy sektor blokcheyn tizimlarini ishlab chiqish va integratsiya qilishda infrastrukturaviy va mutaxassislik muammolari bilan to'qnashadi.

3. **Shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish muammolari:** Blokcheynga bir marta yozilgan ma'lumotni o'chirish deyarli imkonsiz. Bu esa Yevropa Ittifoqining GDPR qoidalari va boshqa shaxsiy ma'lumotlar himoyasi qonunchiliklari bilan muvofiqlik muammolarini tug'diradi⁸.

Huquqiy asoslarni yaratish. O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimi blokcheyn texnologiyasiga oid asosiy yondashuvlarni ishlab chiqish bosqichida turibdi. Intellektual mulk obyektlari, ayniqsa tovar belgilarining blokcheyn asosida

⁷ Tapscott, D., & Tapscott, A. (2018). *Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin Is Changing Money, Business, and the World*. Penguin.

⁸ Finck, M. (2019). *Blockchain and the General Data Protection Regulation: Can distributed ledgers be squared with European data protection law?* European Parliamentary Research Service.

ro'yxatga olinishi, ularning egasi va yaratilish sanasini aniqlovchi dalillar sifatida tan olinishi qonunchilikda belgilanishi lozim. *Fuqarolik kodeksi va Intellektual mulk to'g'risidagi qonunchilikka qo'shimchalar kiritilib, blokcheynga asoslangan yozuvlar isbot vositasi sifatida tan olinishi mumkinligi aniqlashtirilishi kerak.* Bundan tashqari, quyidagi asosiy takliflarni ham joriy etish kerak deb hisoblaymiz:

1. O'zbekiston Intellektual mulk markazi huzurida "Raqamli ishonch markazi"ni tashkil etish orqali tovar belgilarini raqamli identifikatsiyalash va blokcheynga yozish imkoniyati yaratiladi.
2. Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) bilan hamkorlikda "UzProof" platformasini yo'lga qo'yish, WIPO Proof modelini lokalizatsiya qilish orqali xalqaro integratsiyani kuchaytirish mumkin.
3. Yagona elektron platforma orqali ro'yxatga olish, to'lov, litsenziya va monitoring xizmatlarini integratsiyalashgan tizimga aylantirish taklif etiladi.
4. Huquq va IT sohalari integratsiyasi doirasida yuridik universitetlarda "Blokcheyn va huquq" yo'nalishida magistratura dasturlari joriy etilishi lozim.
5. Sudyalar, prokurorlar, advokatlar, ekspertlar uchun doimiy malaka oshirish kurslarida blokcheyn texnologiyasi va uning huquqiy oqibatlari bo'yicha maxsus modullar kiritilishi kerak.
6. Intellektual mulk vakillari va xususiy sektor mutaxassislari uchun amaliy treninglar, WIPO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda seminarlar o'tkazish zarur.

REFERENCES/IQTIBOSLAR/ЧОККИ:

1. Paris konventsiyasi (1883) — “Paris Convention for the Protection of Industrial Property”.
2. TRIPS bitimi (1994) — “Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights”.
3. Madrid bitimi va Protokoli (1891, 1989) — “Madrid Agreement Concerning the International Registration of Marks”; “Protocol Relating to the Madrid Agreement”.
4. UNCITRAL. Model Law on Electronic Commerce with Guide to Enactment. Vienna, 1996.
5. E-SIGN Act: Electronic Signatures in Global and National Commerce Act. AQSh, 2000.
6. UETA: Uniform Electronic Transactions Act. AQSh, 1999.
7. ISO/TC 307. ISO 22739:2020 – Blockchain and distributed ledger technologies – Vocabulary. Geneva, 2020.
8. Kshetri N. “Blockchain’s Roles in Strengthening Cybersecurity and Privacy: A Multinational Perspective”, Telecommunications Policy, 2017, 41(10): 1023–1034.
9. WIPO. WIPO Proof: Digital Timestamping REST API. Geneva, 2020.
10. EUIPO. Anti-Counterfeiting Blockchain Infrastructure (ACBI). Alicante, 2022.
11. US Patent and Trademark Office (USPTO). Exploring Opportunities and Benefits of Cryptocurrency and Blockchain Technology. Washington, D.C., 2021.
12. Sabirov U. “Blokcheyn texnologiyalarining intellektual mulk sohasidagi huquqiy muammolari”, Huquqiy fanlar jurnali, 2021, № 3, 45–53 betlar;

13. Anderson M. “Smart Contracts and the Law”, Journal of Technology Law, 2020, Vol. 12, No. 2, 78–85 betlar.
14. O‘zbekiston Respublikasi “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi Qonun. Tashkent, 2004.
15. <http://www.lex.uz/>.
16. <https://www.international-arbitration-attorney.com/ru>.